

**BOG'LANISH NAZARIYASINI ONA VA BOLA OBRAZLARI  
TAHLILIDA TATBIQ ETISH**

*Achilova Gulhayo Ismailovna*

*Toshkent davlat transport universiteti Tayanch doktoranti*

***Kalit so'zlar:*** *psixologiya, bog'lanish nazariyasi, psixoanaliz, psixologik metod, shaxslararo munosabat, erta rivojlanish, on va bola.*

***Key words:*** *psychology, attachment theory, psychoanalysis, psychological method, interpersonal relationship, early development, mother and child.*

***Ключевые слова:*** *психология, теория привязанности, психоанализ, психологический метод, межличностные отношения, раннее развитие, мать и ребенок.*

Insoniyat taraqqiyoti davomida tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, sanoat, ilm-fan va texnologik o'zgarishlar barobarida adabiy jarayonda ham global o'zgarishlar kuzatildi. Adabiyotda yangi janrlar, uslublar, mavzular vujudga keldi. Ayniqsa, XX-XXI asrlar adabiyot tarixida tajriba va novatorlik davri sifatida muhrlandi. Ijodkorlar endi shunchaki voqealarni bayon qilish yoki qahramonlari xatti-harakatlarini tasvirlash emas, balki ularning qalb tug'yonlari, ichki kechinmalari va ruhiyat tovlanishlarini qalamga olishga ham kirishishdi. Tashqi olam tasviridan endi qahramonlarining ichki olamini yoritish maqsadida foydalanishni boshlashdi. Zero, bugungi jadal rivojlanayotgan, ruhiy bosim ortib borayotgan hamda jamiyat talablari o'zgarib borayotgan zamonda psixologiyaga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham ortganini ta'kidlashimiz joizdir. Psixologiyapso (yunoncha psyche – ruh, logia – ta'limot.[1] Klifford T. Morgan [2] ta'riflashicha, “inson va hayvonlarning xulq-atvori haqidagi fan” dir. Oksford ingliz tili lug'atida esa unga inson ongi va uning funksiyalari, xulq-atvori va unga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etuvchi fan sifatida izoh berilgan. [3] Psixologiya tabiiy, ijtimoiy va pedagogik fanlar kesishmasida joylashgan keng qamrovli soha bo'lib, biologik psixologlar uni nevrologiya bilan

bog'lab, miyada sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan tushunishga intilishsa, ijtimoiy psixologlar esa ayrim shaxslar va guruhlarining xatti-harakatlarini tushunishga intilishadi. [4]

Adabiyotshunoslikda psixologik maktab – XIX asrning oxirgi choragida G'arbiy Yevropa va Rossiya ilmiy muhitida maydonga kelgan yo'nalish. Bu ilmiy yo'nalish madaniy-tarixiy va biografik metod qarashlarini qayta idrok etib, ularni qayta rivojlantirish asosida shakllangan. [5] Psixologik maktab ijodkor shaxsining shakllanishida oila, ijtimoiy muhit, davr singari omillarning muhimligini e'tirof etadi hamda biografik metod singari badiiy asarni ijodkor shaxsining aksi deb hisoblaydi. Mazkur qarashlarni birlashtirgan holda psixologik metod bu omillarning bari ijodkor ruhiyati orqali namoyon bo'ladi deb hisoblaydi va shundan kelib chiqib ijodkorning ruhiy biografiyasi, badiiy ijodning psixologik jihatlarini o'rganishni diqqat markaziga qo'yadi. Ijodkor o'zi uchun yozadi, o'zini qiynayotgan dardlar va kechinmalarini ifodalaydi, shu orqali ulardan forig' bo'ladi, asar ijodkor qalbi modeli bo'lib xizmat qiladi. [6] ta'kidlaganidek: “Madaniy-tarixiy maktab vakillaridan farqli ravishda yangi yo'nalish vakillari ijodkorga, yozuvchining emotsiyalariga, ijodning psixologik jihatlariga, eng muhimi – muallifning ruhiy-ma'naviy dunyosi hamda ijod jarayoniga va bu jarayondagi psixologik holatlarga e'tibor lozim, deb hisobladilar”. Shuningdek, badiiy asar o'quvchisi – retseptientning ruhiy olami ham bu yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun muhim sanaladi.

XX asr boshlariga kelib psixologik metod g'arb adabiyotshunosligida alohida ilmiy maktab, yo'nalish sifatida ahamiyatini yo'qotib, psixoanaliz ta'limotiga asoslangan holda davom etdi. Adabiyotshunoslikda psixoanaliz shunday tadqiqot usuliki, unda badiiy asar ongsizlik (unconsciousness) holati bilan birga talqin qilinib, badiiy ijod inson ruhiyatidagi anglanmagan, ongosti jarayonlaridan olingan reaksiya, impulsning ramziy mahsuli sifatida qaraladi. Psixoanaliz adabiyot tarixida bir qator syujet sxemalarini vujudga keltirdi hamda ularga binoan muallif ma'lum darajada qahramon dunyosiga ko'chgan bo'ladi va o'zining ongosti istaklarini yoki axloqiy mezonlar bilan to'qnashuvini tasvirlaydi. Psixoanalizning otasi sanaladigan Zigmund Freyd (1856 -1939) insonning aqliy faoliyatiga bolalik voqealari ta'sir

ko'rsatishi mumkinligiga urg'u berdi; bemorning ongida ongli va ongsiz elementlarning o'zaro ta'sirini o'rganish va bostirilgan qo'rquv va xavotirlarni ongli ongga olib kirish, tushlarni talqin qilish va erkin assotsiatsiya qilish kabi usullardan foydalangan holda ruhiy kasalliklarni davolash bilan shug'ullandi. U o'zining "Shoir va fantaziya", "Dostoyevskiy va padarkush" kabi asarlarida adabiyot va san'atga psixoanalizni tatbiq etishning ayrim namunalarini ko'rsatish bilan bir qatorda, ularni qorishtirib yubormaslik kerakligini ta'kidladi. Freyd psixoanalizi "men" ga va biografik ma'lumotlarga asoslansa, uning zamondoshi va izdoshi Karl Gustav Yung (1875 – 1961) nazarida psixoanaliz individual holatlarni emas, balki botiniy shurning milliy va umuminsoniy qirralarini o'rgandi. U eng mashhur psixologik tushunchalarni, jumladan sinxronlik, arxetipik hodisalar, jamoaviy ongsizlik, psixologik kompleks, ekstraversiya va introversiyani yaratdi. Yungning nazarida arxetip – o'zgarmas obrazli formula bo'lib, motivlar va ularning birikmalari, qat'iy psixologik shakllar, urf-odat, miflar, ramzlar, psixik faoliyat (tush ko'rish) ijodiy jarayonda ongsiz tarzda sodir bo'ladigan holatdir.

Rus adabiyotshunoslari L.S.Vigotskiy, V.N Voloshinov, M.M Baxtin asarlarida ham psixoanalitik tadqiq usuliga murojaatlarni krishimiz mumkin. Dadaizm, syurrealizm, ekspressionizm, mifologizm kabi adabiy oqimlarga tegishli asarlar psixoanaliz vositasida tushuntirishga harakat qilingan. XX asrning birinchi choragida rus adabiyotshunosligida Freyd ta'limoti hamda psixoanaliz xususida qarashlar to'qnashdi. Xorijda yashab ijod qilgan rus yozuvchisi Vladimir Nabokov kabi har qanday masalani psixoanaliz asosida tushuntirishga, hamma narsani "jinsiy ibtido" ga bog'lashga uringanlar ham, professor V.N.Kasatkin kabi 16300 ta tushni tahlil qilib "Freydning tushlar talqinini XX asrning eng zo'r firibgarligi" deb ataganlar ham bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin psixoanaliz ikki yo'nalishda: ekzistensializm va strukturalizm rivojlandi. J.P.Sartr, A.Malro, S.Dubrovskiyalar ekzistensialist olimlar qatoridan joy olishgan bo'lishsa, J.Lakan, R.Bartlar strukturalizm bo'yicha ilmiy ishlar qildilar. O'zbek adabiyotida esa marksist adabiyotshunolar tomonidan tanqid etilgan psixoanalizga, 70-80-yillarda yana qiziqish ortdi. O'zbek

adabiyotshunos olimlari tomonidan turli ilmiy maqolalarda, tadqiqot va monografiyalarda psixologik metod tamoyillariga, psixologizmlarga, ijodkor psixologiyasiga qisman e'tibor berilgan bo'lsa-da, ayni yo'nalishda hali qilinadigan ishlar hali ko'pligini ko'rishimiz mumkin. [6]

Ushbu bo'shliqni qisman to'ldirish va ushbu yo'nalishga o'z hissamizni qo'shish maqsadida hali o'zbek ilm-fanida tahlil qilinmagan psixoanaliz usuliga qo'l urdik. Zero, ushbu nazariya tanlagan mavzumizni chuqurroq o'rganishga va unga yangicha usulda yondashishga yordam beradi. Ona va bola obrazlarini badiiy va psixologik tahlil etishda bog'lanish nazariyasini ilk marta o'zbek adabiyotida sinab ko'rishga qaror qildik.

Bog'lanish nazariyasi ("attachment theory") shaxslararo munosabatlarni o'rganishda qo'llaniladigan eng yetakchi psixoanaliz yondashuvlaridan biri bo'lib, ota-ona bilan munosabatlar bola shaxsiyatining rivojlanishiga qanchalik kuchli ta'sir qilishi mumkinligini tushuntiradi. Ushbu nazariya bolalarning erta rivojlanishi haqidagi tushunchamizni qayta shakllantirgan bo'lib, dastlab britaniyalik pediatr, bolalar psixiatri va psixoanalist Jon Boulbi (1907-1990) tomonidan 1940-yillarda Angliyada urush davrida ota-onasidan ayrilgan bolalarni kuzatish orqali ishlab chiqilgan. [7] Bu teoriyaga asosan, go'dakning hissiy va ijtimoiy rivojlanishi ularga asosiy g'amxo'rlik qiluvchi shaxs bilan bo'lgan munosabati asosida shakllanadi. Shuningdek, Boulbining ta'kidlashicha, chaqaloqlarda tug'ma biologik mexanizm/tizim mavjud bo'lib, ular tug'ilganidan so'ng tirik qolib yashab ketish uchun tabiatan kimgadir bog'lanish hosil qilishadi. [8] Hayotining dastlabki yillarida shakllangan bu erta bog'lanishlar nafaqat vaqtinchalik aloqalar, balki bolaning kelajakdagi hissiy salomatligi va munosabatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bog'lanish insoniyatning evolyutsion rivojlanishida chuqur ildiz otgan psixobiologik tamoyil bo'lib, bu orqali insonlar ijtimoiy guruhlariga birikib omon qolishgan. Individual rivojlanish doirasida esa u ona va chaqaloq orasidagi dastlabki munosabatni o'rnatish, muhitga moslashish va chaqaloq miyasining rivojlanishi uchun asos yaratadi. Hayotning ilk davrida o'rnatilgan bog'lanish modeli bolaning

keyingi hissiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

“Bog‘lanish obyekti” (“attachment figure”) – bola uni tahdidlardan himoya qiluvchi shaxs sifatida ko‘ruvchi asosiy parvarish qiluvchi odam bo‘lib, bolalardagi tug‘ma biologik mexanizm bog‘lanish obyekti bilan yaqinlik o‘rnatishga intiladi. [8] Yaqinlik va bog‘lanish o‘rnatishga intilish esa bir nechta omillarga asoslanadi:

- bola bog‘lanish obyekti bilan birga bo‘lishni xohlaydi, ayniqsa stressli vaziyatlarda (yaqinlik izlash)

- bola bog‘lanish obyekti bilan o‘zini xavfsiz va qulay his qiladi (xavfsiz tayanch)

- bog‘lanish obyektidan uzoqlashganda norozilik ko‘rsatadi (ajralish)

Bog‘lanishga asoslangan munosabatlar inson hayotining dastlabki oylarida o‘rnatiladi va inson ulg‘aygani sari asta-sekin murakkablashib boradi. Bunday munosabatlar bolaning xavfsizlikka va tushkun holatida ovutilish hamda tushunilishga intilish ehtiyoji asosida rivojlanadi, hamda o‘sha talablarga tarbiyachilar qanday javob berishlariga qarab bolalar kelajakdagi munosabatlariga ta’sir etadigan o‘zlari va munosabatlar haqida “ichki” yoki “aqliy model” larini ishlab chiqadilar. [9]

Boulbining hamkasbi Meri Eynsvort (1913-1999) bog‘lanish nazariyasini chuqurroq tadqiq etish maqsadida dastlabki tajribalarni amalga oshirdi. 1-2 yoshdagi bolalarda shakllangan bog‘lanish sifatini baholash uchun Eynsvort psixologik baholash tizimini yaratdi. Uning uslubiga ko‘ra, bog‘lanish rishtalarini yaratishning uchta asosiy mezonlari mavjud: 1) g‘amxo‘rlik qiluvchiga yaqinlik, 2) “xavfsiz tayanch” ta’siri va 3) g‘amxo‘rlik qiluvchidan ajratilganda norozilik.

Boulbining ishini baholashda uning kuzatishlari faqat o‘z davrining madaniy an‘analaridan va tarixiy sharoitidan kelib chiqqanini hisobga olish kerak, zero uning qarashlari “g‘arbona” tarbiya va oila modeli asosida shakllangan. Boulbi barcha bolalar onasi yoki doimiy ona o‘rnini bosuvchi shaxs bilan iliq, yaqin va uzluksiz munosabatda bo‘lishlari kerak degan xulosaga keldi. Bundan tashqari, u bu munosabatlarning rivojlanishi uchun 6 oydan 30 oygacha bo‘lgan davr nihoyatda

muhim ekanligini ta'kidladi. Bunday munosabatlarning mavjud bo'lmashligi yoki buzilishi esa, og'ir va tiklanishi murakkab bo'lgan oqibatlarga olib kelishi ham mumkindir. Agar onalik qilish bola ikki yoshga to'lgunga qadar kechiktirilsa, onalik deyarli foydasiz bo'lishi va bola psixopatik yoki eng yaxshi holatda mehsiz ulg'ayib, boshqalar bilan yaqin munosabatlar o'rnatolmasligi mumkin. Boulbi nafaqat shifoxona va ayrim muassasalarda bolalarni onalaridan alohida parvarishlashga, balki uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bolalar bog'chalari yoki maktablarga ham qat'iy qarshiligini bildirdi. Hatto uch yoshdan besh yoshgacha bolganlar ham faqat yarim kunlik mashg'ulotlarga qatnab, qolgan payt onalari parvarishida bo'lishlari lozimligini ta'kidladi. Adabiyot inson va uning ruhiy olamini (ham qahramon, ham yozuvchining) aks ettirar ekan, uning psixologiya bilan uzviy aloqasini inkor eta olmaymiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Online Etymology Dictionary. (2001). "Psychology" Archived 18 July 2017
2. Morgan, Clifford T, et al., *INTRODUCTION TO PSYCHOLOGY*. New Delhi: Tata McGraw-Hill, 2008. Print.
3. <https://www.oed.com/search/dictionary/?scope=Entries&q=psychology>
4. Fernald LD 2008). *Psychology: Six perspectives* Archived 8 June 2020 at the Wayback Machine (pp.12–15). Thousand Oaks, CA: Sage Publications.
5. Куронов Д. Адабиётшунослик луғати / Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. – Тошкент: Akademnashr, 2013.
6. Karim B. *Ruhiyat alifbosi* – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
7. <https://www.structural-learning.com/post/block-play-a-teachers-guide>
8. Bowlby, J. (1988). *A secure base: Parent–child attachment and healthy human development*. New York, NY: Basic Books.
9. T. Styron, and R. Janoff-Bulman, "Childhood attachment and abuse: Long-term effects on adult attachment, depression, and conflict resolution," *Child Abuse & Neglect*, vol. 21, no. 10, pp. 1015-1023, 1997.